

AFG‘ONISTONDA SIYOSIY TIZIM EVOLYUTSIYASI:
MONARXIYADAN TO “TOLIBON” HUKUMATIGACHA

Istamova Dilnura Zafar qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakulteti,

Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3 -bosqich talabasi.

Tel:+998504550304, dilnuraistamova9@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Afg‘oniston siyosiy tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib , monarxiya davridan to toliblar hokimiyatga kelishi davrigacha yoritib berilgan. Maqolada monarxiyadan Respublika davriga o‘tish, sotsialistik rejim davridagi davlat boshqaruvi , fuqarolar urushi yillaridagi siyosiy parokandalik , AQSHning afg‘on xalqi uchun qo‘llagan tizimi hamda Tolibon hukumatining hokimiyat uchun qilgan harakatlari va hokimiyatga kelishi tizimli yoritilgan.*

Tolibonning birinchi va ikkinchi hokimiyati va AQSH ishtirokidagi institutlarning rivojlanish bosqichlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *Evolyutsiya, modernizatsiya, intervensiya , gender tengligi , monarxiya , demokratiya , AXDP*

Annotation: *This article analyzes the stages of formation and development of the Afghan political system, from the monarchy to the Taliban's rise to power. The article systematically covers the transition from monarchy to the Republic, state governance during the socialist regime, political chaos during the civil war, the system used by the United States for the Afghan people, and the Taliban government's efforts to gain power and rise to power.*

The first and second governments of the Taliban and the stages of development of institutions with US participation are described.

Key words: *Evolution, modernization, intervention, gender equality, monarchy, democracy, AKP*

Аннотация: *В статье анализируются этапы становления и развития политической системы Афганистана от монархии до прихода к власти Талибана. В статье системно освещаются переход от монархии к республике, государственное управление в период социалистического режима, политический хаос в период гражданской войны, система, используемая Соединенными Штатами для афганского народа, а также усилия правительства Талибана по завоеванию власти и приходу к власти.*



Описываются первое и второе правительства Талибана и этапы развития институтов с участием США.

Ключевые слова: *Эволюция, модернизация, вмешательство, гендерное равенство, монархия, демократия, ПСР*

KIRISH

Bugungi kunda Afg'oniston davlati butun dunyo markazidagi davlatlardan biri hisoblanadi chunki bu davlat siyosiy nizolar ko'p davlat hisoblanadi. Bu davlat oxirgi davr mobaynida siyosiy tizimning o'zgaruvchanligi, beqarorligi va tashqi aralashuvlarga yuqori darajada ochiqligi bilan ajralib turadi. Afg'oniston siyosiy tizimining evolyutsiyasi monarxiyadan boshlanib keyinchalik respublikachilik, sotsialistik rejim, islomiy yondashuv, AQSH boshchiligida o'rnatilgan rejim va yana keyinchalik toliblar tomonidan e'lon qilingan islom amirligi shaklidagi hokimiyat kabi bosqichlarni bosib o'tgan.

Bu davlatda hokimiyatning qay shaklda bo'lishiga qarab siyosiy institutlar ham, boshqaruv shakli ham o'zgarib turgan. Ayniqsa, 2021-yilda Tolibon hukumatining hokimiyatga kelishi diplomatik aloqalar, gender tengligi, demokratik o'zgarishlar masalalarida bir qancha savollarni yuzaga keltirdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Afg'oniston siyosiy tizimining shakllanishi XVIII asr o'rtalarida Ahmadshoh Durraniy tomonidan asos solingan Durraniy imperiyasi davriga borib taqaladi. Durraniy imperiyasiga asos solinganidan boshlab, Afg'oniston boshqaruvi an'anaviy qabila tuzilmalari va islomiy shariat asosida yuritilgan. Qabila sardorlari va kengash tizimi orqali siyosiy qarorlar qabul qilingan. Bu davlatni Ahmadshoh Durraniy boshqargan uning boshqaruvi davrida afg'on xalqining siyosiy tizimi rivojlangan va ular bir davlat sifatida shakllana boshlagan.

1801-yildan keyin ya'ni Zamonshoh siyosatiga bo'lgan norozilikdan so'ng qo'zg'alon yuz berdi va Zamonshoh taxtdan ag'darildi. Shundan so'ng Afg'onistonda barakazaylar sulolasi asoschisi Do'st Muhammad kelguniga qadar siyosiy tarqoqlik yuz berdi. Barakazaylar sulolasi davrida ingliz-afg'on urushi ham bo'lib o'tdi va afg'onlar uchun og'ir bo'ldi.²³ Birinchi va ikkinchi ingliz-afg'on urushi mobaynida ishlab chiqarish kuchlari ancha bo'shashib qoldi. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo ancha orqada qolib ketdi. Ko'p shahar va qishloqlar honavayron qilinib, yoqib yuborilgan edi. Ularning aholisi qirib tashlanganligi tufayli qabilalarning ko'pi kuchsizlanib qolgan edi.

²³ M. Boboxo'jayev, Afg'onistonning Yangi Tarixi (1747-1918), TOSHKENT-1997 P.15



Keyinchalik esa konstitutsiyaviy monarxiya joriy etilib , modernizatsiya jarayonlari boshlanib ketdi. 1926-yilda Omonullaxon taxtga o'tirganidan so'ng ayollar huquqlari , ta'lim va shu kabi bir qator siyosiy institutlar shakllana boshladi.

1973-yilda Muhammad Dovudxon to'ntarish yo'li bilan taxtni egallab Afg'oniston Respublikasini e'lon qildi. Biroq siyosiy pluralizmga asoslanmagan bu tizim ham uzoq yashamadi. Ammo Muhammad Dovudxon monarxiyani tugatib ko'plab islohotlarni joriy etdi chunki monarxiya har qanday islohotlarga to'g'anoq bo'lar edi.

²⁴1973-yilning avgustida Muhammad Dovud “Xalqqa murojaat” nomi bilan mashhur bo'lgan mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga oid o'z harakat dasturini e'lon qildi. Ilgarigi tuzumni keskin tanqid qilgan davlat rahbari afg'on xalqi irodasiga muvofiq holda jamiyatni siyosiy , iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan isloh qilishni ilgari surdi. Muhammad Dovud o'z hokimiyatining huquqiy asoslarini ham yaratishga kirishdi va yangi konstitutsiya ham joriy etdi. 1978-yilda davlat to'ntarishi oqibatida u inqilobchilar tomonidan o'ldirildi. Shu tariqa, Afg'onistonda konstitutsiyaviy monarxiya joriy etildi.

Davlat inqilobchilar qo'liga o'tganidan so'ng, 1979-yilda sovet qo'shinlari bostirib kirdi va 10 yil davomida Afg'oniston hududida bo'ldi 1989-yilda o'z qo'shinlarini olib chiqib ketdi lekin, bu davlatda siyosiy tarqoqlikni kuchaytirdi va siyosiy tizimning buzilishiga sababchi bo'ldi.

1990-yilda Kobulda AXDP o'rniga “Vatan” partiyasi tuzildi. Bu partiya o'zining yangi siyosiy dasturini e'lon qilib, keng ommaviy ishlarni boshlab yubordi.” Vatan” partiyasi mamlakatda demokratik islohotlar o'tkazishni, xalq istagidan kelib chiqib qonunlar yaratish, sotsializmdan islom foydasi uchun voz kechish kabi g'oyalarni ilgari sura boshladi²⁵. Monarxiyadan to respublikagacha afg'on xalqi mana shunday bosqichlardan o'tdi va 1996-yilda mutlaqo yangicha tizim bilan Tolibon hukumati hokimiyatni egalladi va davlatni Afg'oniston Islom Amirliqi deb e'lon qildi.

Shariat qonunlariga asoslangan qat'iy diniy boshqaruv joriy etildi. Toliblarning kelishi xalq uchun juda og'ir bo'ldi chunki, ular aholi uchun juda ham kuchli va qat'iy tartibda bo'lgan cheklovlar qo'ydi. Ayollar uchun maktab eshiklari yopildi, ish faoliyatini yurtishi taqiqlandi va erkinliklari

²⁴ Afg'oniston tarixi., O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan., Afg'oniston tarixi o'quv qo'llanma.-T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 344 b.

²⁵ Anthony, A. The Ephemeral Elite. The Failure of Socialist Afghanistan Political Parties and Restructuring Order in Socialist Afghanistan. New York, 1988 - P.21.



cheklab qo'yildi. Bu davrda Afg'oniston xalqaro izolyatsiyaga tushib qoldi va siyosiy tizim diniy mafkuraga asoslandi.

2001-yilgi esa AQSH intervensiyasidan so'ng Afg'onistonda yangi siyosiy tizim yaratildi. Shu tariqa, 2001-yilning oktabrida Afg'onistonda AQSH boshchiligidagi aksilterror koalitsiyasi tomonidan amalga oshirilgan aksilterror operatsiyasi natijasida “Tolibon” hukumatiga barham berildi va ko'pchilikning manfaatlarini ifoda etuvchi yangi hukumat tuzildi²⁶. Bu hukumat boshlig'i etib Homid Karzay tayinlandi. Bu davrda afg'on xalqi uchun bir qator yengilliklar yaratildi, prezidentlik boshqaruvi, parlament saylovlari va eng asosiysi gender tengligi ta'minlandi. Ammo tizimning barqaror bo'lmaganligi demokratiyaning tiklanishiga to'sqinlik qildi.

2021-yilda AQSH kuchlari mamlakatni tark etgach davlat yana Tolibon qo'liga o'tdi va “Islomiy Amirlikni” qayta tikladi. Hozirgi kungacha toliblarning bu harakati xalqaro hamjamiyatning noroziliklariga sabab bo'lmoqda va siyosiy tizimning diniy-ideologik asosga ega bo'lganligi sababli, institutsional legitimlikdan yiroq qolmoqda.

XULOSA

Afg'oniston siyosiy tizimi doimiy evolyutsiyada bo'lsa-da hech bir shakl mustahkam bo'lmagan va uni xalq qo'llab quvvatlamagan. Bu davlat uzoq tarixga ega va o'z davrining har bir bosqichida o'zgacha yo'nalishli tizimlar bilan boshqarilgan. Monarxiyadan to demokratiyagacha, har bir tajriba tashqi omillar va siyosiy madaniyat yetishmasligi sababli, muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Hozirgi hukumat esa dinni niqob qilgan holda, xalqni boshqarmoqda, bu esa nafaqat xalqning balki, xalqaro tashkilotlar hamda qo'shni davlatlarning ham noroziligiga sabab bo'lmoqda. Afg'oniston uchun barqaror siyosiy tizim yaratish rivojlanishning muhim vositasidir.

²⁶ Afg'oniston tarixi., O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan., Afg'oniston tarixi o'quv qo'llanma.-T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 344 b.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M. Boboxo'jayev ,Afg'onistonning Yangi Tarixi (1747-1918), TOSHKENT-1997 P.15
- 2.Afg'oniston tarixi., O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan., Afg'oniston tarixi o'quv qo'llanma.-T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 344 b.
3. Anthony, A. The Ephemeral Elite. The Failure of Socialist Afghanistan Political Parties and Restructuring Order in Socialist Afghanistan. New York, 1988 - P.21.
4. Afg'oniston tarixi., O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan., Afg'oniston tarixi o'quv qo'llanma.-T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 344 b.

